



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 6 - mart

VI-59-54-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Angor tumani hokimining birinchi va tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlarining 2022-yil IV chorak yakuni bo'yicha faoliyat samaradorligini baholash natijalari muhokamasi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-avgustdagi "Mahalliy ijro hokimiyati organlari rahbarlari o'rinbosarlarining ularga yuklangan vazifalarni bajarishda shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5230-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-avgustdagi "Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarlari o'rinbosarlarining funksional vazifalari hamda faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari to'g'risidagi namunaviy Nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 548-sonli qaroriga muvofiq tuman hokimining birinchi va tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlarining 2022-yil IV chorak bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari bajarilishi natijalari yuzasidan hisobotlari eshilib, ularning faoliyat samaradorligini baholash natijalari atroflicha muhokama qilinib, bildirilgan mulohazalar asosida hamda tuman hokimi o'rinbosarlarining 2022-yil IV chorak yakunlari bo'yicha faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarini baholash natijalaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-avgustdagi PQ-5230-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-avgustdagi 548-son qaroriga asosan 2022-yil IV chorak yakunlari bo'yicha hokim o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligini baholash natijalari haqidagi axborot, shuningdek, tuman hokimi o'rinbosarlarining hisobotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari hamda topshiriqlarining belgilangan muddatlarda sifatli bajarilishini tashkil etish, shuningdek, o'zlari mas'ul bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning reyting ko'rsatkichlari natijalari uchun shaxsan javobgar ekanliklari belgilab qo'yilsin.

3. Tuman hokimining birinchi va tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari:

- **har oyning 25-sanasiga qadar** faoliyat ko'rsatkichlarini baholashning asosiy mezonlarida belgilangan vazifalarning, kelgusi oy shaxsiy ish rejalariga kiritib borilishini;

- faoliyat ko'rsatkichlari ijrosi bo'yicha har oy tuman hokimligi rasmiy telegram kanali orqali axborot berib borilishini;

- qoloqlikka yo'l qo'yilgan ko'rsatkichlar bo'yicha shaxsiy ish rejalarida aniq chora-tadbirlarni belgilab, ularning bajarilishini, shuningdek, kelgusida o'z faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarining o'sib borishini;

- 2023-yil uchun mo'ljallangan faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarining to'liq ijrosini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimligi:

- **2023-yil 10-apreliga** qadar 2023-yil I chorak yakuni bo'yicha hokim o'rinbosarlarining samaradorlik ko'rsatkichlari bajarilishining yakuniy natijalarini ko'rib chiqish va baholash yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritilishini;

- **2023-yil 15-apreliga qadar** har bir hokim o'rinbosari bo'yicha berilgan baho natijalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar, shu jumladan, tegishli o'rinbosarlar mas'uliyati yuzasidan takliflar hamda boshqa tahliliy materiallar, shuningdek, xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli qarori viloyat hokimligiga kiritilishini ta'minlasin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati, "Angor yog'dusi" gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan **har chorak yakunida** xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma hisobot kiritib borilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov